

DORIVOR MAVRAK (SALVIA OFFICINALIS L.) QUYUQ EKSTRAKTINI SAQLOVCHI “STOMASAL” SURTMASI SIFATINI BAHOLASH

Z.A.Nazarova, M.Sh.Shuhratova

Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent sh., O'zbekiston Respublikasi

e-mail: nazarova.zarifa@list.ru

tel: +998(88)038-05-98

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10677949>

Tarkibida dorivor mavrak (*Salvia officinalis* L.) barglaridan 70% etil spirt yordamida tamomlangan siklli reperkolyatsiya usulida ajratma olingan, tozalangan va undan quyuq ekstrakt olinib tadqiqotlar asosida tanlangan metilselluloza (MS) gidrofil asosda gingivitga qarshi surtma texnologiyasi ishlab chiqilgan [1].

Tavsiya etilayotgan ilmiy ishda “Stomasal” surtmasining sifati, fizik–kimyoviy va texnologik xossalari aniqlanib baholandi.

Kalit so'zlar: dorivor mavrak, quyuq ekstrakt, surtma, texnologiya, sifat, fizik – kimyoviy, texnologik ko'rsatgichlar

Dolzarbli: Hozirgi kunda aholi o'rtasida og'iz bo'shlig'i yallig'lanish kasalliklari keng tarqalganligi tufayli, ushbu kasalliklarda qo'llaniladigan dorivor preparatlar ishlab chiqarish dolzarb hisoblanadi. Bu turdagi yallig'lanish kasalliklaridan biri – bu gingivit kasalligidir. Gingivit (lot. gingivitis) – tish-milk birikmalari yaxlitligi buzilmasdan milklarning yallig'lanishi. Milk yallig'lanishi ko'pincha milklarning shishishi, qizarishi yoki qonashi bilan namoyon bo'ladi. Gingivit odatda og'iz gigiyenasiga rioya qilmaslik, noto'g'ri ortodontik davolanish, tishlarni yaxshi parvarish qilmaslik natijasida yuzaga keladi. Kasallikni davolash og'iz bo'shlig'ini professional tozalash yoki jarrohlik yo'li bilan amalga oshiriladi [2].

Tadqiqotning maqsadi: Dorivor mavrak (*Salvia officinalis* L.) quyuq ekstraktini saqlovchi “Stomasal” surtmasi sifatini baholash .

Tadqiqot usullari: Xomashyo sifatida dorivor mavrak (*Salvia officinalis* L.) barglari olindi. Mavrak barglaridan ajratma tamomlangan siklli reperkolyatsiya usulida olindi. Ajratuvchi sifatida 70% etil spirtidan foydalanildi. Ajratuvchi miqdorini hisoblashda dorivor mavrakning suv shimish koeffitsiyenti O'zbekiston Respublikasi Davlat Farmakopeyasi (2020) ga ko'ra hisoblanildi. Olingan ajratma 5% Al₂O₃ (alyuminiy oksid) eritmasi bilan tozalandi. Tozalangan ajratmani 50-60°C haroratda vakuum-apparatda qoldiq namlik 25% qolgunga qadar quyultirildi. Surtma uchun asos tanlashda gidrofil va lipofil-gidrofil asoslar olindi va ular asosida surtma kompozitsiyalari ishlab chiqildi. Surtmalar mavrak ekstrakti va asos turining fizik-kimyoviy xossalari hisobga olgan holda tayyorlandi. Quyidagi asoslar olindi: 1.Metilselluloza (MS), 2.Natriy karboksimetilselluloza (Na KMS), 3.Jelatin, 4.Karbopol-934, 5.Emulsion asos, 6.Polietilenglikol (PEG). Agar-agar geliga to'g'ri diffuziya usuli orqali tayyorlangan surtmalardagi biofaol moddalarning surtmadan ajralib chiqish darajalari o'rganildi. Olingan surtma tashqi ko'rinishi bo'yicha ko'kimtir-qo'ng'ir rangli, o'ziga xos hidli, yumshoq massa [3].

“Stomasal” surtmasini sifatini baholash “Surtmalar” umumiy farmakopeya maqolasi (I O'zDF, jild 2) va tegishli MH talablari asosida olib borildi. Olingan natijalar jadvalda keltirilgan:

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, surtmaning sifat ko'rsatgichlari: tashqi ko'rinishi, chinligi, bir xillili, kolloid va termoturg'unligi, pH ko'rsatkichi va qizdirilgandagi massa yo'qotishi me'yoriy hujjat talablariga mos keladi [4].

“Stomasal” surtmasining aniqlangan sifat ko’rsatgichlari natijalari

Aniqlangan ko’rsatgichlar	MH bo’yicha me’yorlar	Olingan natijalar
Tashqi ko’rinishi	yumshoq, mayin, ko’kimtir-qo’ng’ir rangli, o’ziga xos hidli surtma	mos
Chinligi	Surtmaning suvli eritmasiga 1% li FeCl ₃ eritmasidan bir necha tomchi qo’shilganda, qizil-qo’ng’ir rang hosil bo’ladi (flavonoidlar)	mos
	1%li paradimetilaminobenzaldegidning konsentrlangan sulfat kislotadagi eritmasi ta’sirida qizil – qo’ng’ir rangli cho’kma hosil bo’ladi (azulin qator seskviterpen moddalar)	
Suvli ajratmaning pH(1:10) ko’rsatkichi	4,50-6,50	5,8
Bir xilligi	MH talablariga binoan 4 ta namunadan 3 tasida ko’zga ko’rinadigan zarrachalar bo’lmasligi kerak	mos
Kolloid turg’unlik	1500 ay/daq tezlikda sentrifugalanganda 300sek. davomida qavatlarga ajralmasligi kerak	mos
Termoturg’unlik	40±2°C da termostatda 6 soatdan so’ng qavatlarga ajralmasligi kerak	mos
Qizdirilganda yo’qotilgan og’irlik, %	14 % dan ko’p bo’lmasligi kerak	8,3

Asosiy natijalar va xulosalar: Jadvalda keltirilgan natijalar (3 tadan namunada aniqlandi) asosida tahlil qilinayotgan surtmalar sifat ko’rsatgichlari bo’yicha qo’yilgan talablarga mos keladi.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Nazarova Z.A., Shuhratova M.Sh. Dorivor mavrak (*Salvia officinalis* L.) asosida surtma tarkibini tanlash va texnologiyasini ishlab chiqish // Farmatsevtika jurnali.-2023.-№4.-B.21-27
2. Савченко Л.Н., Маринина Т.Ф., Саушкина А.С. Разработка состава и технологии стоматологической мази с экстрактом шалфея тингитана // Известия Самарского научного центра Росс. акад. наук, том 16, №1(3).2014.-С.817-820
3. O’zbekiston Davlat Farmakopeyasi.-2020.-2 jild.-B.2031
4. Ziyamuxamedova M.M. Tukli bargli xandeliya asosida yallig’lanishga qarshi dori vositalarini ishlab chiqarishning texnologik jihatlari... farm.f.d.diss. avtoreferat.-2018.-61b